

O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy holati (2024- yil yanvar-noyabr oyi)

1. Sanoat mahsuloti

2024- yilning yanvar-noyabr oylarida respublika korxonalarini tomonidan **780 872,9** mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi va sanoat ishlab chiqarishi fizik hajm indeksi o'tgan yilning shu davriga nisbatan **106,8** foizni tashkil etdi.

Shu bilan birga, sanoat ishlab chiqarishining umumiy hajmida ishlab chiqaradigan sanoatning ulushi 84,8 foizni, tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoati 7,8 foizni, elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash 6,9 foizni, suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish 0,5 foizni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarish o'sishining asosiy omili bo'lib ishlab chiqaradigan sanoat korxonalarida ishlab chiqarish o'tgan yilning shu davriga nisbatan 7,9 % ga, suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish sanoatida 5,2 % ga, elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sanoatida fizik hajm indeksi 5,2 % ga, tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoati 0,9 % ga oshganligi kuzatildi.

Shuningdek, o'tgan yilning shu davriga nisbatan avtotransport vositalari, treylerlar va yarim pritseplar ishlab chiqarish (2023- yilning yanvar-noyabr oyiga nisbatan 4,8 % ga oshgan), boshqa tayyor buyumlar ishlab chiqarish (44,1 %) hamda boshqa toifalarga kiritilmagan mashina va uskunalar ishlab chiqarish (27,2 % ga), rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish (29,3 %) hajmi oshdi.

O'tgan yilning shu davriga nisbatan mashina va uskunalardan tashqari tayyor metall buyumlar ishlab chiqarish (2023- yilning yanvar-noyabr oyiga nisbatan 86,8 %), asosiy farmatsevtika mahsulotlari va dori mahsulotlari (2023- yilning yanvar-noyabr oyiga nisbatan 96,8 %) hajmi pasayishi kuzatildi.

2. Inflyatsiya darajasi

2024- yilning yanvar-noyabrida respublika iste'mol sektoridagi inflyatsiya darajasini aks ettiruvchi iste'mol narxlari indeksi (INI) **108,7** % ni tashkil etdi.

Oziq-ovqat mahsulotlari bo'yicha INI 100,7 % ni, nooziq-ovqat mahsulotlar bo'yicha 107,3 % ni, xizmatlar bo'yicha 125,9 % ni tashkil etdi.

Oziq-ovqat mahsulotlari narxlarining o'zgarishlari hisobiga 2023- yilning dekabriga nisbatan yig'ma ko'rsatkich 0,29 foiz darajasida (keyingi o'rinlarda f.d.) yuqoriladi. Nooziq-ovqat mahsulotlar narxlarining oshishi yig'ma INIga 2,37 f.d., xizmatlar – 6,01 f.d. ta'sir etdi.

2024- yilning yanvar-noyabri uchun bo'limlar kesimidagi INI diapazoni 100,1 % dan (Oziq-ovqat mahsulotlari va spirtsiz ichimliklar (I)) 137,9 % gacha (Turar joy xizmatlari, suv, elektr, gaz va boshqa yonilg'i turlari" (IV)) chegarada joylashdi.

Turar joy xizmatlari, suv, elektr, gaz va boshqa yonilg'i turlari joriy yil boshidan davr uchun yig'ma INI o'sish sur'atiga yuqori ta'sir ko'rsatgan bo'limligicha saqlanib qoldi. Sog'liqni saqlash va transport sohalaridagi narx o'zgarishlari ham o'sish sur'atiga yuqoriroq ta'sir ko'rsatdi. Sanab o'tilgan bo'limlarning yig'ma ko'rsatkich o'sish sur'atiga jami ta'siri 6,61 f.d.ni tashkil etish.

3. Qurilish ishlari

2024- yilning yanvar-noyabr oylarida **205 710,2** mlrd. so'mlik qurilish ishlari bajarilib, o'sish sur'ati **109,2** % ni tashkil etdi. Qurilish ishlarining umumiy hajmining 49 013,8 mlrd. so'mi yoki 23,8 % yirik korxonalar va tashkilotlar, 98 738,3 mlrd. so'mi yoki 48,0 % kichik korxonalar va mikrofirmalar, 57 958,1 mlrd. so'mi yoki 28,2 % norasmiy sektor subyektlari tomonidan bajarildi.

4. Chakana savdo tovar aylanmasi

2024- yilning yanvar-noyabr oylarida chakana savdo tovar aylanmasi **334 460,2** mlrd. so'mni tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan **9,7** % ga o'sdi.

Yirik korxonalarning tovar aylanmasi hajmi 2023- yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan 8,7 % ga o'sdi, bu esa umumiy savdo hajmining 17,1 % ulushiga to'g'ri keladi. Kichik biznes subyektlarining chakana tovar aylanmasi 2023- yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan 9,4 % ga o'sgan. Respublika miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 73,0 % ni, shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi 9,9 % ulush bilan 33 051,4 mlrd. so'mni tashkil etdi.

5. Tashqi savdo aylanmasi

2024- yilning yanvar-noyabr oylari yakuni bilan respublikaning tashqi savdo aylanmasi **59 368,8** mln. AQSh dollarini tashkil etib, 2023- yilning mos davriga nisbatan **2 058,7** mln. AQSh dollariga yoki **3,6** % ga ko'paydi. Eksport hajmi **24 223,0** mln. AQSh dollariga yetdi, o'tgan yilning shu davriga nisbatan **4,4** % ga ko'paydi. Import **35 145,8** mln. AQSh dollariga yetdi va o'tgan yilning shu davriga nisbatan **3,0** % ga o'sdi.

Eksport tarkibida quyidagi guruhlarda o'sish kuzatildi, jumladan: mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar 40,0 % (1 218,1 mln. AQSh doll.)ga, kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar 24,6 % (1 504,3 mln. AQSh doll.)ga, oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar 19,8 % (1 970,6 mln. AQSh doll.)ga, sanoat mahsulotlari 3,6 % (3 885,2 mln. AQSh doll.)ga.

Import tarkibida quyidagi guruhlarda ham o'sish kuzatildi, jumladan: mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar – 61,4 % (3 623,8 mln. AQSh doll.)ga, ichimliklar va tamaki – 26,3 % (217,0 mln. AQSh doll.)ga, oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar 5,6 % (3 333,7 mln. AQSh doll.)ga, turli xil tayyor buyumlar 0,9 % (1 042,5 mln. AQSh doll.)ga, to'g'ri keladi.

6. Ko'rsatilgan bozor xizmatlari

2024- yilning yanvar-noyabr oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **726 813,1** mlrd. so'mni tashkil etdi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan **13,3 %** ga o'sdi.

Ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmining o'sishiga moliyaviy xizmatlarning 20,8 % ga (ko'rsatilgan umumiy bozor xizmatlari hajmining o'sishidagi ta'siri 3,5 punkt), yashash va ovqatlanish xizmatlari 11,1 % ga (o'sishdagi ta'siri 2,4 punkt), savdo xizmatlari 11,7 % ga (o'sishdagi ta'siri 2,3 punkt), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari 26,0 % ga (o'sishdagi ta'siri 1,6 punkt), transport xizmatlari 9,3 % ga (o'sishdagi ta'siri 1,6 punkt), ta'lim sohasidagi xizmatlarni 13,1 % ga (o'sishdagi ta'siri 0,5 punkt) o'sishi ijobiy ta'sir ko'rsatdi.

Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining eng katta hajmi yashash va ovqatlanish (160 063,5 mlrd. so'mni tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 111,1 % ga yetdi), savdo xizmatlari (132 742,7 mlrd. so'm, 111,7 %), transport xizmatlari (127 327,1 mlrd. so'm, 109,3 %) va moliyaviy xizmatlar (122 891,1 mlrd. so'm, 120,8 %)ga to'g'ri keladi.

7. Korxonalar va tashkilotlar soni

2024- yil 1- dekabr holatiga respublikada faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning soni **468,1** mingtani (*fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari*) tashkil etdi, ulardan kichik korxonalar va mikrofirmalar 400,9 mingta. Hududlar bo'yicha joylashgan eng ko'p soni esa Toshkent shahri (101 244 ta), Toshkent (43 232 ta), Samarqand (42 381 ta), Farg'ona (38 091 ta), Qashqadaryo (30 328 ta), Buxoro (29 762 ta) va Andijon (28 011 ta) viloyatlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning eng ko'p soni savdo sohasida – 152 646 ta, sanoat sohasida – 64 012 ta, qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi sohasida – 35 330 ta, qurilish sohasida – 31 211 ta hamda yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida – 28 917 tani tashkil etadi.

2024- yil yanvar-noyabr oyida respublikada 75,3 mingta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi, shundan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni 72,9 mingtani tashkil etdi.

2024- yil 1- dekabr holatiga ko'ra respublikada xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni 15 450 tani tashkil etdi. Ulardan 4 220 tasi qo'shma korxonalar va 11 230 tasi xorijiy korxonalar tashkil etgan.